

SOVET DAVRI: O'ZBEKISTONDAGI IJTIMOYIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Oriental universiteti Tarix yo'nalishi 1-kurs magistranti

Ibragimova Go'zal Abdullaazizovna

“Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev

Annotatsiya: *Bugungi kunda sovet davri tarixini o'rganishda ilmiy tahlillar va tarixiylikka asoslangan ilmiy tadqiqotlarni olib borish shu bilan birgalikda ilmiy xulosalar chiqarish tarixiy tadqiqotlarning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.*

Shu sababli mazkur maqolada Yangi O'zbekiston tarixini o'rganishda shaffoflik, oshkoralikka tayanib izlanishlar olib borgan holda Sovet davrida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishdagi dolzarb masalalari ilmiy talqin etilgan.

Kalit so'zlar: *O'zbekiston tarixi, sovet davri, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot, industriyashtirish siyosati, jamoalashtirish harakati, totalitar tizim, paxtachilik, qishloq xo'jaligi, ta'lim-tarbiya, milliy-ma'rifiy ishlar.*

Аннотация: *Сегодня при изучении истории советского периода одной из важнейших задач исторических исследований является проведение научного анализа и научных исследований, основанных на историчности.*

Поэтому в данной статье *дается научное толкование актуальных вопросов изучения социально-политической, экономической и культурной жизни Узбекистана в советское время с опорой на прозрачность, прозрачность в изучении истории Нового Узбекистана.*

Ключевые слова: *История Узбекистана, советский период, социально-политическая, экономическая и культурная жизнь, политика индустриализации, коллективизационное движение, тоталитарная система, хлопководство, сельское хозяйство, образование, национально-просветительская работа.*

Abstract: *Today, in the study of the history of the Soviet period, scientific analysis and conducting scientific research based on historicism, together with making scientific conclusions, are considered one of the most important tasks of historical research.*

This is why this article *scientifically interprets current issues in the study of socio-political, economic and cultural life of Uzbekistan during the Soviet period, relying on transparency and transparency in the study of the history of New Uzbekistan.*

Key words: *History of Uzbekistan, Soviet period, socio-political, economic and cultural life, industrialization policy, collectivization movement, totalitarian system, cotton growing, agriculture, education, national and educational affairs.*

KIRISH

O'zbekiston tarixini yozish o'z tarixshunosligiga ega va bu vazifa bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini yo'qotkani yo'q. Mustaqillik sharafoti bilan O'zbekistonning hech qachon o'zgarmaydigan, holisona tarixini yozish imkoniyati tug'ildi.

O'zbekiston tarixini tahlili shuni ko'rsatadiki, soxta yoritilgan tarix, hech qachon haqiqiy tarix asari bo'lolmaydi, uning hech qanday tarbiyaviy ahamiyati ham yo'q. O'zbekiston tarixni o'rganishdagi eng dolzarb vazifa–haqqoniylik va oshkoralikdir.

O'zbekistonning sovet davridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishni haqqoniylik nazari bilan tahlil qilish juda muhim. 1917-1924-yillarni o'rganish muayyan vazifalarni belgilaydi:

- o'rganilayotgan davrda Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotining asosiy jihatlarini har tomonlama tahlil qilish;

- uning asosiy tendensiyalari va jarayonlarini aniqlash;

- jamiyatning yetakchi ijtimoiy va siyosiy kuchlarini o'rganish;

- rivojlanish dinamikasi va ularning ijtimoiy hayotga ta'sirini kuzatish;

- dasturiy ifodalarini tushunish;

- siyosiy portretlarni qayta tiklash va o'zgarishlarning mohiyatini ochib berish.

O'rganilayotgan davrda xalqning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi tendensiyalar va jarayonlarni tarixiy, madaniy, sivilizatsiyaviy yondashuvlar asosida tahlil qilish o'rinli.

Dolzarb vazifalardan yana biri, Sovet tuzumining mustamlakachilik mohiyatini to'laqonli aniqlab kelajak avlodga bexato yetkazib berish.

XX asrning 80-yillari sobiq sovet davlatida ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan yaqqol tanazzul holati yuzaga kelib qolgan davr edi. "Qayta qurish" siyosati barbod bo'lishi, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan, mulkchilikning turli shakllari raqobat asosida saqlanishni inkor etgan mavhum siyosiy, sinfiy, umumiy manfaatlarni milliy manfaatlardan ustun qo'ygan, yagona partiyaning hukmronligiga tayangan mustabid tuzum butunlay istiqbolsiz ekanini amalda yana bir bor ko'rsatgan edi. Bu vaqtda O'zbekiston iqtisodiy hayoti juda og'ir ahvolda, xususan, sanoatning bir yoqlama rivojlanib, «paxta» sanoat kompleksiga moslashishi, ekologik ahvolning og'irlashib, onalar va bolalar o'limining oshib ketishi, millatlararo munosabatlarda ziddiyatli holatlar yuzaga kelib, milliy mojarolar yanada kuchayib, milliy urf-odatlar, qadriyatlar ta'qib ostida qolishi respublikani tang ahvolga solib qo'ygan edi. O'sha davlarda o'zbeklar hayotida "Paxta ishi" va "O'zbeklar ishi" deb yuzsizlarcha nomlangan tergovlar boshlanib ketdi. Gdlyan guruhi o'zbekistonliklarga nisbatan qonunsiz, beshafqat ishlarni boshlab yubordi. Ularning zo'ravonligi oqibatida sudlar adolatsiz hukmlar chiqara boshladi.²

² 9 Узб (075) Xoliqova R.E. O'zbekistonning eng yangi tarixi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: 2021. 18-19-bet

TAHLIL VA NATIJALAR

Sovet hokimiyati Rossiya imperiyasining mustamlakachilik va buyuk davlatchilikdan iborat siyosatini davom ettirgan holda, Oktyabr to'ntarishi chorizmning mustamlaka Turkiston iqtisodiyoti va Xalq ommasini imperiyaga ekspluatatsiya qilishdan iborat talonchilik amaliyotiga va'da qilingan o'zgarishlarni kiritmadi. Aksincha, mustabid hokimiyat idora usuli bilan qo'shib ketgan bozordan tashqari "sotsializm" degan markscha andoza "Sovet O'zbekistoni" sharoitida o'zining eng so'nggi nuqtasiga yetib, milliy iqtisodiyotni izdan chiqardi. Qilingan ishlarni tahlil qiladigan bo'lsak, sobiq sovet davlatida amal qilgan "ittifoq mehnat taqsimoti" avvaldan ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish sohasida chorizmning mustamlakachilik andozasi asosidagi buyuk davlatchilik mantig'iga tayanganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu andoza O'zbekiston xo'jaligi majmuining haddan tashqari ixtisoslashuvini, uning iqtisodiy rivojlanishining bir tomonlama xususiyatini belgilab, o'lkamizning tabiiy boyliklar va resurslarini talab, undan vaqtincha foydalanish, tayyor mahsulotlarni sotib jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lish edi.

1920-yillarning boshlarida joriy etilgan yangi iqtisodiy siyosat O'zbekiston iqtisodiyotida ham o'sishlarni yuzaga keltirdi. Biroq, 1920-yillarning oxirida bu siyosat o'zining mohiyatini yo'qoti va 1929-yilda butkul bekor qilindi. Erkin savdo, xususiy tadbirkorlikka chek qo'yildi.

O'lka xalqlari bilan kommunistik metropoliya o'rtasida iqtisodiy sohadagi mustamlakaviy-imperiyacha munosabatlarning yangi shakli tayanch asoslarini yaratishning belgilovchi omili xususiy mulkni mustabidchasiga davlat mulkiga aylantirish siyosati, ishlab chiqarish vositalarini keng miqyosda jadallik bilan umumlashtirish bo'ldi.

O'zbekistonda sovet hokimiyatini mustahkamlashning zaruriy sharti sifatida industriyashtirish siyosatini amalga oshirish ishlari boshlandi. Dastlab industriyashtirishda kichik suv elektrostansiyasi va qishloq xo'jaligiga, paxtachilikka qaratilgan xom-ashyoni qayta ishlash korxonalari qurilib ishga tushirildi. Sovetlarning o'z kuchimiz bilan qisqa muddatda deb olib borgan industriyashtirish siyosati O'zbekiston uchun og'ir kechdi. Markaz respublikamizning yer osti va yer usti qazilma boyliklari, xom-ashyo manbalarini talon-taroj qilib, arzon ishchi kuchidan foydalanib, o'lkamizdan imkon qadar ko'proq foyda olish harakatida bo'ldi. Bu siyosat asosan millionlab dehqonlar hisobidan amalga oshirildi. Jamoalashtirish siyosatini qishloq joylarida zo'rlik bilan olib borish oson kechkan edi. Markazning "Tanqidiy xulosalari" asosida O'zbekiston Sho'ro hukumati va komfirmasi respublikada jamoalashtirishni yuqori sur'atlarda va "Safarbarlik" asosida olib bordi. Natijada 1932-yilda butun O'zbekistondagi boy va o'rtahol hamda sho'ro davrida yer olgan dehqonlarning 91,7 foizi jamoalashtirildi – jamoa va davlat xo'jaliklariga birlashtirildi, ularning qo'llaridagi barcha chorva mollari, ot-ulovlari hamda mehnat vositalari majburiy umumlashtirildi. Jamoalashtirish siyosati oqibatida qishloq xo'jaligi mehnat unumdorligi pasayib, moddiy manfaatdorlik yo'qoldi, qishloq aholisi qoshshoqlashdi, dehqonlarni ekspluatatsiya qilishning yagona takomillashgan usuli kashf etildi. Mamlakatning ichki resurslari, tabiiy boyliklari va arzon ishchi kuchini g'oyat ko'chma ekspluatatsiya qilish evaziga, yaxshi sarmoyalardan bosh tortgan holda olib borilgan iqtisodiyotni tiklash xalqning boshiga

o'ta og'ir kunlarni keltirib chiqardi. O'zbekiston xo'jaligini tiklash ishlari sovet hukumatining zo'r berib qurollanish siyosatiga bo'ysindirildi. Dunyodagi barcha mustamlakachi davlatlar singari sho'rolar davlati ham O'zbekistonni o'zining hom ashyo yetkazib beruvchi o'lkasiga aylantirish siyosatini yuritdi, og'ir sanoatni rivojlantirishga ataylab yo'l bermadi. Urushdan O'zbekiston butunlay holdan toyib, har tomonlama qiyinchiliklar girdobiga botgan holda chiqdi.

Ikkinchi jahon urushi yillari davrida izdan chiqqan O'zbekistonning iqtisodiyoti urushdan keyingi 1946-1950-yillarda asta-sekinlik bilan qayta tiklana boshladi, biroq chorvachilikni tiklash ishlari ancha og'ir o'tdi. 1945-yil 15-iyuldagi Markaziy hukumatining O'zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish choralari to'rg'risidagi qarori asosida paxta yakkaxonligi kuchaytirildi va yirik sanoat korxonalarining vujudga kelishi O'zbekistonning markazga bog'liqligi yana ham mustahkamlandi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov u paytda O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga Markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi, deydi.

1980-yillarda ilm-fan, madaniyat va xalq ta'limiga ajratilgan harajatlar davlat budjetining 27 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1989-yili Yevropa mamlakatlarida 5,5 foizni, Afrika mamlakatlarida 5,4 foizni tashkil qilgan. Bolalar o'limi oshqozon-ichak va yuqumli kasalliklar bo'yicha O'zbekiston SSSR da birinchilar qatorini egallagan edi.

Totalitar tizimi jarayonida o'lkadagi madaniy-ma'rifiy ishlar e'tibordan chetda qolmadi. 1920-1930-yillarda savotsizlikni tugatish maqsadida olib borilgan ta'lim-tarbiya bilan bog'liq ishlar osongina qo'lga olindi.

Sovetlarning "Madaniy inqilob" tadbiri jamiyatning barcha jabhalarini, ayniqsa fan va madaniyatni o'ta mafkuralashtirib, uning har bir sohasiga kirib bordi. Bolsheviklar tarbiyaning dastlabki va ta'sirchan quroli bo'lgan xalq ta'limini birinchi kunidanoq mafkura izmiga solish uchun bor imkoniyatlarini ishga soldi. Maktablarda siyosiy tarbiyani yo'lga qo'yishga va uni takomillashtirib borishga e'tibor qaratildi. Bilamizki, bolsheviklar mafkurasi negizida asosan sinfiy kurash g'oyasi turgan. O'zgacha fikrlashga bo'lgan har qanday urinish "Sinfiy dushman qarshiligi" deb baholandi.

1920-1930-yillarda mustabid tuzumiga qarshi fikr bildirganlarni ta'qib ostiga olish avj oldi. Ayni shu paytda "18lar guruhi", "Inog'omovchilik", "Qosimovchilik" kabi siyosiy ishlar to'qib chiqarilgan.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, respublika NKVDsi "Uchlik"lari tomonidan 1937-1939 yillarida 41 mingdan ziyod kishi qamoqqa olinib, ulardan 6 ming 920 tasi otib tashlangan. Har qanday o'zgacha fikrni kuch bilan bo'g'adigan, ommaviy o'zboshimchalik va zo'rlik bilan Vatanga sodiq necha minglab kishilarni qirib tashlangan mustabid targ'ibot kuchaydi.

Eng achinarlisi shuki, respublikada ta'lim-tarbiya, madaniy-ma'rifiy ishlar shaklan milliy-ma'rifiy sotsialistik shiori ostida olib borildiki, asl maqsad baynalminalchilik niqobi bilan pardalanib, o'lkaga rus madaniyatini, ularning turmush tarzini tarqatishdan iborat bo'ldi.

Urushdan keyingi 50-60-yillarda respublika ijobiy ziyolilarning yangi avlodi shakllandi. Shaxsga sig'inishning fosh etilishi bilan yuzaga kelgan iliqlik shamoli badiy adabiyotda, ko'pgina salmoqli asarlar yaratildi. Bir qancha yangi o'zbek teatr va konsert san'atining dong'ini taratgan jamoalar tashkil etildi. Jamiyatda inqirozli holatlarini kuchayishi bilan madaniy xayotdagi ziddiyatlar ham keskinlashdi, chiqib borayotgan sotsializm g'oyalarsiz tarixiy badiy asarlar yorug'lik ko'rmaydigan bo'ldi.

XULOSA

Tadqiqot va o'rganishlarim natijasini umumlashtirilib, quydagi xulosaga keldim:

Birinchidan, Sovet davrida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishdagi dolzarb masalalarning mohiyatini ochib berish, bunda: sovet hukumati va bolsheviklar tomonidan xalqimizga nisbatan olib borilgan ta'ziyq va taqiblar natijasida ijtimoiy-iqtisodiy erkinlikka, milliy-ma'naviy, diniy cheklashga, har bir o'zbek xalqini o'zligidan iymon-e'tiqodidan vos kechtirishga urinishdi.

Ikkinchidan, Sovet hukumati tomonidan yuritilgan siyosati mohiyatini ochib berish, bunda: 1924-yilning oxirida bolshevizmning O'rta Osiyoni milliy-hududiy chegaralash borasidagi siyosati amalga oshirilishi bilan, nihoyasiga yetdi. Bu bolshevizmning asosiy mafkuraviy va siyosiy dushmani bo'lgan turkizmga qarshi kurash manfaatlari taqozosi bilan mohirona o'ylab topilgan harakat edi. Mintaqa xalqlariga majburan tiqishtirilgan bu siyosatni amalga oshirish uchun vaqt va mablag' bilan bir qatorda katta kuch-g'ayrat sarflash talab qilindi. Birinchi davrda – milliy chegaralanish g'oyasi paydo bo'lgan 1920-yildan 1924-yilgacha, uni amalga ro'yobga chiqarish boshlangan paytgacha, uning mafkuraviy, siyosiy, madaniy-ma'naviy asoslash va shundan keyingi harakatlar uchun zamin tayyorlash mexanizmi ishga tushirildi. "Yagona turkiy millat bo'lmaganidek, yagona madaniyati va yagona turkiy til ham yo'q" degan shiorlar ostida to'rt yil mobaynida dastlab Turkiston, keyinroq Buxoro va Xorazm respublikalari xalqlari ongiga keng miqyosda tazyiq o'tkazildi, milliy o'xshash tuzilmalarning shakllanish jarayonidagi integratsiya sun'iy ravishda jadallashtirildi. Ikkinchi davr, 1924-yilda bevosita milliy chegaralanish o'tkazildi. Mahalliy xalqlarning istaklari inobatga olinmadi va ularni o'rganish mexanizmi ishlab chiqilmadi. Sovet hukumati yurgizgan shavqatsiz siyosati natijada 20-yillarning boshida Turkistonda madaniy qurilish ishlari xalq xo'jaligi vayron bo'lgan va bolsheviklar ataylab boshlab bergan sinfiy kurash keskinlashgan murakkab sharoitlarda olib borildi. Bu davrda Turkiston madaniy hayoti o'ziga hos ziddiyatli, bir-birini inkor etuvchi salbiy va ijobiy holatlarning o'zaro kurashi tarzida namoyon bo'ldi. Bolsheviklar yakkahokimligi tiklanib bo'lingach, chor hukumati siyosatiga monand ravishda sovetlar amalga oshirgan madaniy siyosatning ustivor yo'nalishi millat, milliy o'zligini anglashning muhim sharti bo'lgan madaniyatni yo'q qilish, ayniqsa, milliy va diniy bayramlarini nishonlash, musulmonlarning masjidlariga borish, nomozlar o'qish, ro'za tutishlarini yo'q qilib tashlashga qaratilgan edi. Ular tomonidan olib borilgan siyosat ko'plab o'zbek oilalarini yostig'ini quritdi.

Uchinchidan, Sovet hukumatining sanoatlashtirish siyosati va uning oqibatlarini ko'rsatib berish, bunda: 1925-1940-yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati sho'ro hukumati va komfirqa mustamlakachilik siyosatining tarkibiy va ajralmas qismi bo'lgan.

Bu siyosatni oqlash maqsadida “SSSR yagona xo‘jalik kompleksi” g‘oyasi ilgari surildi. Mazkur g‘oyadan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda xalq xo‘jaligining qaysi tarmog‘ini rivojlantirish masalasini Moskva markaz hal qilar edi. Bu Taraqqiyot yo‘nalishlari” stalincha besh yilliklarda o‘z aksini topdi va ular Komfirqa qurultoylarida tasdiqlandi. Ana shu direktivalar asosida O‘zbekiston taraqqiyotining 1925-1940-yillardagi ahvoli tahlil etiladigan bo‘lsa, bu davr mobaynida respublikada sanoat mahsulotlarini o‘zi mustaqil ravishda ishlab chiqaradigan birorta industriya gigantining bunyod etilmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Chunki O‘zbekistonda bunday yirik sanoat gigantlarini qurish Sho‘rolarning milliy mustamlakachilik manfaatlariga javob bermas edi.

Hullas, Sovet davlati O‘zbekistonda hech qanaqa yirik sanoat korxonasini qurmadi va qurishi ham mumkin emas edi. O‘zbekistonda qurilgan va ma‘lum darajada ahamiyatliroq bo‘lgan sanoat korxonalarining 30 foizi Ittifoq tasarrufida, 60 foizi Ittifoq-Jumhuriyat tasarrufida bo‘lib butkul Markazga bo‘ysungan. Faqat 10 foizgina sanoat korxonasi bevosita O‘zbekistonga bo‘ysungan va bu respublika iqtisodiyotida hal qiluvchi o‘rin tutmagan. 1946-1985-yillarda O‘zbekistonda elektroenergiya sanoati rivojlantirildi. Yengil va oziq-ovqat sanoatining bir qator korxonalari qurilib ishga tushirildi. O‘zbekistonda sho‘rolar hukumatining rangli va qora metallurgiya, ko‘mir ishlab chiqarish, gaz va neft mahsulotlarini qazib olish, transport va aloqa tarmoqlarini rivojlantirish, kapital qurilishini hamda shaharsozlik kabi sohalarga e‘tibor berganligi to‘g‘risida keragidan ortiqcha yozilgan.

O‘zbek xalqi o‘zi mehnat qilib yetishtiradigan va Markazga yetkazib beradigan juda qimmatli hom ashyo mahsulotlari – paxta, nitron, kaprolaktam va boshqalarni o‘zida tayyor mahsulot tarzida ishlab chiqarish imkoniyati bo‘lmaganligi uchun, uni tayyor mahsulot tovarlari shaklida bir necha barobar qimmat narxlarda Markazdan sotib olishga majbur bo‘ldi. Natijada zarur va qimmatli hom ashyolarni ishlab chiqarayotgan O‘zbekiston bu mahsulotlarni yetishtirishda foyda emas, zarar ko‘rdi.

Sho‘rolar hukumati aholi uchun zarur bo‘lgan sohalar: don mahsulotlari, poliz va sabzavot kabi dala ekinlari tarmoqlarga ikkinchi darajali soha deb qaradi. Buning oqibatida xalqning qaramligi va tobeligi yanada oshdi. Sho‘rolar tuzumining inqirozi iqtisodiy sohani ham chetlab o‘tmadi. Bu jarayon 50-yillarning oxiri va 60-yillarda avj oldi. Buni 1956-1960-yillarga mo‘ljallangan besh yillik va 1959-1965-yillarga mo‘ljallangan yetti yillik rejalarining bajarilmay qolganligida ko‘rishimiz mumkin. 80-yillarda bu jarayon birmuncha keskin tus oldi. O‘zbekiston Ittifoq darajasining sanoatda mehnat unumdorligi bo‘yicha 40 foizgina ko‘rsatkichga ega edi. Qishloq xo‘jaligida esa mehnat unumdorligi umumittifoqning o‘rtacha ko‘rsatgich darajalaridan ikki baravar kam bo‘lgan. Ohir oqibat ishlab chiqarish sur‘atlari o‘sish o‘rniga orqaga ketdi.

O‘zbekiston sobiq Ittifoq tarkibida uzoq yillar hukm surgan ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi ta‘sirida faqat xomashyo yetkazib berishga asoslangan, qoloq va mo‘rt iqtisodiyotga ega bo‘lib, bu holat o‘zbek xalqining yashash sharoitiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Bunday og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat O‘zbekistonda uzoq davom etishi mumkin emas edi. XX asrning 90-yillariga kelib insoniy haq-huquqlar, ijtimoiy adolat hamda milliy o‘zlik

uchun kurash pallasi yaqinlashdi va bu jarayon o'zbek xalqining mustaqillik uchun bo'lgan kurashni tezlashtirib yubordi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. 1991-y.
2. Karimov Sh., Shamsiddinov R. Turkiston Rusiya bosqini davrida. 1995-y.
3. Rahimov J. O'zbekiston tarixini o'rganishda arxiv manbalaridan foydalanish. 1995-y.
4. Turkestan v nachale XX veka: K istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti / / Kollektiv avt.: R. M. Abdullayev, S. S. Agzamxodjayev, I. A. Alimov i dr./.-T.: «Sharq», 2000-y
5. O'zbekiston tarixi (1917—1991-yillar): Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 1-bosqich o'quvchilari uchun darslik / Mas'ul muharrir: Q. Rajabov.— T.: «Sharq», 2010-y
6. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob.
7. Xoliqova R.E. O'zbekistonning eng yangi tarixi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: 2021-y 18-19-bet

WEB SAYTLAR:

1. <https://abiturtest.uz>
2. <http://el.tfi.uz>
3. <https://milliycha.uz>
4. <https://vk.com>
5. <https://wikipedia.uz>